



ВАЗОРАТИ МАОРИФ ВА ИЛМИ ҶУМҲУРИИ ТОҶИКИСТОН  
ДОНИШКАДАИ ОМУЪЗГОРИИ ТОҶИКИСТОН ДАР ШАҲРИ ПАНҶАКЕНТ  
МИНИСТЕРСТВО ОБРАЗОВАНИЯ И НАУКИ РЕСПУБЛИКИ ТАДЖИКИСТАН  
ТАДЖИКСКИЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ В Г. ПЕНДЖИКЕНТ



# ПАЁМИ ДОНИШКАДА ВЕСТНИК ИНСТИТУТА HERALD OF INSTITUTE

НАШРИ МАХСУС / СПЕЦИАЛЬНЫЙ ВЫПУСК / SPECIAL EDITION

БО ҲАМКОРӢ БО ТАХРИРИЯТИ МАҚАЛЛАҲОИ ИЛМӢ-  
ПАЖӢҲИШИИ “АНВОРИ ИЛМ” ВА “ТАФАККУРИ ТАЪРИХ”

СОВМЕСТНО С РЕДАКЦИЕЙ НАУЧНО-  
ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ ЖУРНАЛОВ «АНВОРИ ИЛМ» И  
«ТАФАККУРИ ТАЪРИХ»

IN COLLABORATION WITH THE EDITORIAL STAFF OF THE  
RESEARCH JOURNALS "ANVORI ILM" AND "TAFAKKURI  
TARIKH"



**ВАЗОРАТИ МАОРИФ ВА ИЛМИ ҶУМҲУРИИ ТОҶИКИСТОН  
ДОНИШКАДАИ ОМУЌЗОРИИ ТОҶИКИСТОН  
ДАР ШАҲРИ ПАНҶАКЕНТ**

---



**МАВОДИ**

**анҷумани илмӣ-амалии байналмилалӣ “Масоили мубрами таърих, фарҳанг, таърихнигорӣ ва манбаъшиносии халқҳои Осиёи Миёна”, дар Донишкадаи омӯзгории Тоҷикистон дар шаҳри Панҷакент, ба муносибати 60 солагии доктори фанҳои таърих, профессор Воҳидов Шодмон Ҳусейнович**

\*\*\*

**МАТЕРИАЛЫ**

**научно-практической международной конференции “Актуальные проблемы истории, истории культуры, историографии и источниковедения истории народов Средней Азии” в Таджикском педагогическом институте в городе Пенджикент, в честь 60-летия доктора исторических наук, профессора Вохидова Шодмона Хусейновича**

\*\*\*

**MATERIALS**

**scientific-practical international conference "Actual problems of history, cultural history, historiography and source study of the history of the peoples of Central Asia" at the Tajik Pedagogical Institute in the city of Penjikent, in honor of the 60th anniversary of Doctor of Historical Sciences, Professor Vohidov Shodmon Khuseinovich**

**Панҷакент - 2021**

**МАВОДИ** анчумани илмӣ-амалии байналмилалӣ “Масоили мубрами таърих, фарҳанг, таърихнигорӣ ва манбаъшиносии халқҳои Осиёи Миёна”, дар Донишкадаи омӯзгории Тоҷикистон дар шаҳри Панҷакент, ба муносибати 60 солагии доктори фанҳои таърих, профессор Воҳидов Шодмон Ҳусейнович – Панҷакент, 2021. – 884 с.

#### **Ҳайати таҳрирӣ/Редакционная коллегия:**

Ансорӣ М.Қ. – раис, Аханов Б.Ф. (Қазоқистон), Петрусеевич А.А., Эркинов А. С., Пулатов М.Э., (Ўзбекистон), Воҳидов Ш.Х. (муҳаррири масъул), Шарифова Г.Х. (муовини раис ва котиби масъул), Абдуллоев Ш. У., Мақсудов З.О., Ансорӣ М.М., Комилов А., Исроилов С., Худойназаров М., Сирочзода Ф., Салихов Н., Турсунов Н., Ғаффоров Ш. С. Холиқова Р.Э. Эшов Б.(Ўзбекистон)

#### **Муқарризон:**

Қурбонов Ш., номзади улуми таърих, профессор (Тоҷикистон)  
Турсунов С. доктори улуми таърих, профессор (Ўзбекистон)  
Холиқова Р., доктори улуми таърих, профессор (Ўзбекистон)

Баъзе фикр ва хулосаҳои дар маҷмӯа омада бо нуқтаи назари таҳририят созгор наомаданаш мумкин аст. Барои дурустии иқтибос, ҳавола ва пайнавиштҳо дараҷаи илмӣ, услуб ва баёни мақолаҳо муаллифҳо масъуланд.

Мнение редколлегии не всегда совпадает с мнением авторов. За достоверность цитат и ссылок, научный уровень, стилистику статей ответственны авторы.

The opinion of the editorial board does not always coincide with the opinion of the authors. Authors are responsible for the reliability of citations and references, the scientific level, and the style of articles.

Дар асоси қарори Шӯрои олимони Донишкадаи омӯзгории Тоҷикистон дар шаҳри Панҷакент ба нашр тавсия дода шуд (суратчаласаи № 10 аз 28 декабри соли 2021).

© ДОТП, “Паёми донишкада”, “Анвори илм”,  
“Тафаккури таърих” соли 2021.

қатъи назар ба он ки масъалаҳо ба хона дода шудаанд ё ба кори контролии хаттӣ дохил карда шудаанд, албатта дар дарси навбатӣ ҳалли онҳоро муҳокима кардан лозим аст ва дар суръати содиршавии хатогихо аз тарафи бештари талабагон, масъалаҳои монанд такроран ҳал карда мешаванд. Агар талаба ягон масъаларо ҳал карда натавониста бошад, низ ҳамин тавр рафтор кардан лозим аст.

Таҷрибаҳо нишон дод, ки ба система дохил кардани ин хел масъалаҳо чунин оқибат доранд; ин хел машқҳоро талабагон бо тезӣ мефаҳмидагӣ мешаванд, маҳорати зарурӣ ба даст меоранд, муносибати онҳо ба нақли мавзӯи нав фаъолтар мегардад ва ба предмет шавқ пайдо мекунанд.

#### Адабиёт:

1. Глинка Н.Л., Масъала ва машқҳо аз химияи умумӣ. Душанбе 1968.
2. Дризовская Т.М., Таълими химия дар синфҳои 7 ва 8. Душанбе 1974.
3. Ҷӯраев Ҷ.Ҳ. Мачмӯи масъала ва машқҳои химия барои докталабони мактабҳои олий ва донишҷӯён. Душанбе 2014.
4. Магдисиёва Н.Н., Кузьменко Н.Е., химиядан масалалар ечишни ўрганайлик. Тошкент 1991.
5. Серёда И.П. химиядан конкурс масалалари олий ўқув юртларига кирувчилар учун. Тошкент 1978.
6. Сушко В.И. Мактабда химия. Тошкент 1991.
7. Ходаков Ю.В., Шаповаленко С.Г., Эпштейн Д.А. Химияи ғайриорганикӣ. Душанбе 1966.
8. Хомченко Г.П., Химия. Душанбе 1986.
9. Хомченко Г.П., Хомченко И.Г., Химиядан масалалар тўплами олий ўқув юртларига кирувчилар учун. Тошкент 1989.

\*\*\*

## SOVET HOKIMIYATINING SAVODSIZLIKKA QARSHI KURASHI

**Akramov Doston Faxriddin o'g'li**  
**Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi**  
**Tel: +998(94)2225459**

Sovet davlatining sotsializm qurilishining shu davridagi milliy siyosatining mohiyati ana shundan boshlandi. 1919 yilning 26 dekabrda V. I. Lenin tarixiy hujjatga-Xalq Komissarlari Sovetining savodsizlikni tugatish to'g'risidagi dekretiga qo'l qo'ydi: bu dekret asrlar bo'yi hukm surib kelgan qoloqlik va jaholatga qarshi kurashishda juda katta rol o'ynadi. Ilm-ma'rifatdan hamma mehnatkashlarni bahramand qilish va avvalo savodsizlikni tugatish zarur edi. Sovet milliy respublikalarida keng taraqqiy qilgan sotsialistik iqtisodiyotni yaratmoq uchun respublikamiz ko'pchilik aholisining madaniy jihatdan qoloqligiga barham berish, madaniy qurilishni keng avj oldirish, ko'plab boshlang'ich va o'rta maktablar ochib, ona tilida o'qitish, oliy o'quv yurtlari bunyod qilish hamda ixtisosli ishchi, injener, agronom, o'qituvchi va vrach kadrlar tayyorlashni keng yo'lga qo'yish, xullas milliy kadrlar yetishtirish zarur edi. Kommunistik partiya va Sovet davlatining siyosatini xalq ommasi har tomonlama qo'llab-quvvatladi. O'zbek xalqining, shuningdek, rus ziyolilarining eng yaxshi vakillari - xalq ommasini ma'rifatli qilishda, respublikada madaniy qurilishning ravnaq topishiga faol

yordam berdilar. Xalq ommasi o'tmish sarqitlariga, ekspluatator sinflar qoldiqlariga qarshi keskin kurash qizib ketgan bir sharoitda yangi sovet madaniyati yaratishga kirishdi. Sovet hokimiyatining dastlabki yillaridayoq RSFSRda maktab va xalq maorifini qayta qurish sohasida jiddiy ishlar boshlab yuborildi. Maktabni burjuaziyaning sinfiy hukmronligi qurolidan sinfiy ayirmalarni yo'qotish va sotsializm tik jamiyat qurish quroliga aylantirishga qaratilgan dekretlar qabul qilindi. Mana shu vazifani ko'zda tutib, 1917 yilning dekabrda V. I. Lenin imzosi bilan tarbiya va maorif ishlarini diniy mahkama qo'lidan olib, Maorif Xalq Komissarligi ixtiyoriga topshirish to'g'risida dekret e'lon qilindi. Shundan so'ng, cherkovni davlatdan va maktabni cherkovdan ajratish to'g'risida; barcha din darslaridan o'qituvchilik lavozimini bekor qilish to'g'risida; O'quv okruglarini bekor qilish to'g'risida; xalq maktablari direktori, inspektori lavozimlarini; xalq maktablari gubernatorlik direktorialari va inspeksiyalarini bekor qilish to'g'risida; har bir o'quv yurti uchun belgilangan kiyim formasi va o'quvchilik nishonlarini bekor qilish to'g'risida; O'g'il va qiz bolalarni albatta birga o'qitishni joriy qilish to'g'risida; yangi imlo qoidasi joriy qilish va hokozolar to'g'risida dekret va qarorlar chiqarildi. Hukumatning bu qarorlarini amalga oshirilishi yangi maktab qurilishini tezlatishga katta yordam berdi. 1917 yilda Turkiston o'lkasida Maorif Xalq Komissarligi tuzildi. 1918—1919 yillar sovet maktabi taraqqiysi uchun ayniqsa og'ir yillar bo'ldi. Og'ir iqtisodiy ahvol va fuqorolar urushi olib borilayotgan, ya'ni revolyusiyaning taqdiri hal qilinayotgan bunday og'ir vaziyat, tabiiyki, sovet Turkistonida xalq maorifining sotsialistik asosda qayta qurishni ancha murakkablashtirib yubordi. Bu yo'ldagi qiyinchiliklardan yana biri yerli millatlardan o'qituvchi kadrlar yo'qligi edi. Mahalliy savdo burjuaziyasining ideologlari bo'lgan jadidlar, o'qituvchi kadrlar yo'qligidan foydalanib, butun O'rta Osiyoda maktablarga o'z kishilarini o'qituvchi qilib joylashtirishga harakat qildilar; jadidlarga bu ishda ularning mahalliy tashkilotlari yordam berdi, mahalliy jadidlar adabiyot, san'at, til sohasiga sukulib kirib olib, panturkizm, panislomizm g'oyalari targ'ib qilar edilar.

Maktabdan burjua-millatchilik mafkurasini targ'ib qilish uchun foydalanish yo'lidagi urinishlarga qarshi RSFSR Maorif Xalq Komissarligining 1918 yil 31 oktyabrda «Mayda millatlar maktablari to'g'risida» chiqargan qarori Turkistonda yangi milliy maktablar barpo etishda juda katta rol o'ynadi. -Qarorda RSFSRdagi barcha millatlar quyi, o'rta va yuqori maktabda o'quv-o'qituv ishlarini o'z ona tillarida olib borish huquqidan foydalanadilar, deyilgan edi." Turli millatlar mehnatkashlarining madaniyatini bir-biriga yaqinlashtirish va sinfiy birdamligini o'stirish maqsadi bilan, mayda millatlar maktablarida shu oblastda ko'pchilikni tashkil etgan aholi tilini albatta o'rganish joriy qilindi" Partiya VIII s'yezdi 1919 yilning martida qabul qilgan programmada tarbiya masalalariga katta o'rin berilgan. Bu programmaning «Xalq maorifi sohasida» degan bo'limida bunday deyiladi: «Proletariat diktaturasi davrida, ya'ni kommunizmni to'la-to'kis amalga oshirishga imkon beradigan shartlarni hozirlash davrida maktab faqat umuman kommunizm prinsiplarini o'tkazuvchi bir muassasagina bo'lib qolmasdan, balki kommunizmni uzil-kesil qurishga qobil bo'lgan avlodni tarbiyalab etishtirish maqsadida, proletariatning g'oyaviy, tashkiliy va tarbiyaviy ta'sirini mehnatkash ommaning yarim proletar va proletar bo'lmagan tabaqalariga o'tkazuvchi bir muassasa ham bo'lishi lozim. Hozirgi vaqtda bu yo'ldagi eng yaqinigi vazifa — maktab va oqartirish ishining. Sovet hokimiyati tomonidan belgilangan quyidagi asoslarini yanada yuksaltirishdir:

1) 17 yoshgacha bo'lgan hamma o'g'il va qiz bolalarga tekin va majburiy umumiy va politexnika ta'limi berishni amalga oshirish.

2) Ijtimoiy tarbiyani yaxshilash va xotin-qizlarni ozod qilish maqsadida maktabgacha tarbiya muassasalari: yaslilar, boqchalar va shunga o'xshashlarni barpo qilish.

3) O'quvchilarni o'z ona tillarida o'qitadigan, o'g'il va qiz bolalarni birga tarbiyalaydigan, albatta dunyoviy bo'lgan, ya'ni har qanday diniy ta'sirdan xalos bo'lgan, o'qitishni ijtimoiy-unumli mehnat bilan mahkam bog'laydigan, kommunistik jamiyatning har jihatdan yetuk a'zolarini tayyorlaydigan birlashgan mehnat maktabi prinsiplarini to'la ravishda amalga oshirish.



4) Barcha o'quvchilarni davlat hisobiga oziq-ovqat, kiyimbosh, poyafzal va o'quv qurollari bilan ta'minlash.

5) Kommunizm g'oyalari bilan sug'orilgan yangi maorif xodimlari kadrlarini tayyorlash.

6) Mehnatkash aholini maorif ishiga faol ravishda qatnashuvga jalb qilish («Xalq maorifi sovetlari»ni rivojlantirish, savodlilarni safarbar qilish va hokazolar).

7) Ishchi va dehqonlarning o'z-o'zidan o'qib bilim olishlariga va saviyalarini oshirishlariga davlat tomonidan har taraflama yordam berish (maktabdan tashqi ta'lim muassasalari: kutubxonalar, kattalar uchun maktablar, xalq uylari va universitetlari, kurslar, leksiyalar, kinematografiyalar, studiyalar va shunga o'xshashlar barpo qilish).

Bu vazifalar sotsialistik jamiyatda maktabning taraqqiyot yo'lini belgilab berdi. Partiya sovet maktabining burjua maktabidan tub farqi uning sinflarni batamom tugatish quroli, jamiyatni kommunistik asosda qayta qurish quroli bo'lib xizmat qilishida ekanligini ko'rsatib berdi.

V. I. Lenin komsomolning Butun Rossiya III s'yezdida, 1920 yil 2 oktyabrda «Yoshlar soyuzining vazifasi to'g'risida» so'zlagan tarixiy nutqida, bilim kommunizm qurish uchun, kishilarning har tomonlama kamolotga etishishi uchun zarur ekanligini alohida uqtirib ko'rsatdi, bilimlarni egallashga, shunda ham bu bilimlar jamiyatni revolyusion yo'l bilan qayta qurish yo'lida olib boriladigan amaliy faoliyat uchun qo'llanma bo'ladigan qilib egallashga da'vat qildi.

V. I. Lenin yoshlar oldiga qo'ygan bu vazifalar aniq va ravshan edi. Ammo o'tmishda qoloq bo'lgan, feodalizm va kapitalizm sarqitlari hali saqlanib turgan sobiq Turkistonda bu vazifalarni bajarish yo'lida o'ziga xos qiyinchiliklar tug'ilgan edi. Turkiston Respublikasi Sovetlar XI s'yezdida madaniyat va maorif masalalari muhokama qilindi. Maorif Xalq Komissarining dokladi yuzasidan rezolyusiya qabul qilindi, bu rezolyusiyada quyidagi moddalar bor edi:

- Shahar maktablarida o'qitishni vaqtincha pullik qilish; ammo eng kambag'al ishchi va dehqon bolalarini tekin o'qitishni to'la ta'minlash zarur deb hisoblansin.

- Turkistonda xalq maorifi moddiy bazasini oshirish maqsadida, s'yezd aholining o'z maktablari uchun ixtiyoriy suratda o'zaro soliq tashabbusini kuchaytirish choralari ko'rish zarur deb hisoblansin, shuningdek, maktablarni qishloqjoylarda ham va uyushgan proletariat orasida ham jamoat kafolati asosida shartnomalar tuzib, jamoat ta'minotiga topshirishni ham kengaytirish choralari ko'rilsin.

- Boshqa ishlarga saylab yoki tayinlab qo'yilganligi tufayli o'z kasbida ishlamayotgan mahalliy o'qituvchilarni mumkin qadar maktablarga qaytarilsin».

Turkiston o'lkasi territoriyasida 1917—1918 o'quv yilining oxirida, «Turkiston Sovet Federativ Respublikasida 1918 yil uchun xalq maorifi smetasi» ma'lumotlariga qaraganda, amalda quyidagicha maktab muassasalari mavjud bo'lgan: Shunday qilib, yigirmanchi yillardayoq O'zbekistonda shahar va qishloq maktablarida o'quvchilar sonini keskin suratda oshirish uchun juda ham real imkoniyat yaratilgan edi.

Shuni aytmoq kerakki, sovet maktablari ehtiyojlariga tobora ko'proq mablag' ajratilganligi ayniqsa O'rta Osiyoda milliy davlat chegaralanishidan keyin hamda mamlakatimizda xalq xo'jaligini taraqqiy qildirish birinchi besh yillik planini amalga oshirish davrlarida ayniqsa yaqqol ko'rindi. Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida Turkiston o'lkasining partiya va sovet tashkilotlari oldida yangi o'qituvchi kadrlar tayyorlash vazifasi turgan edi. Eski o'qituvchilar orasida panislomistlar, panturkistlar, millatchilar yoki ularning ta'siri ostida bo'lgan kishilar bor edi. O'qituvchi kadrlar masalasi maktab qurilishining asosiy masalasi bo'lib qoldi, chunki malakali o'qituvchilar bo'lmasa, maktab qurilishi ishlarini muvaffaqiyat bilan hal qilib bo'lmas, yangi maktab qurib bo'lmas edi.

Internatsionalist-o'qituvchilarning 1918 yil iyunida bo'lib o'tgan Butunrossiya s'yezdi ishtirokchilari bu s'yezdga V. I. Lenin nutqini zo'r shavq bilan tingladilar, V. I. Lenin bu nutqida: «Ilgari Sovet hokimiyati bilan birga ishlash tomoniga asta-sekinlik bilan o'ta borgan

o'qituvchilar endilikda bu xilda birgalashib ishlashning zarurligiga tobora ko'proq ishonmoqda», deb uqtirib o'tgan edi. S'yezd Sovet davlatining siyosati va xalqning revolyusion kurashi sohasida o'qituvchilar oldida turgan vazifalarni ko'rsatib berdi. O'qituvchilar o'zlarining faqat o'qituvchilik ishlari doirasidagina cheklanib qolmay, balki kurashayotgan mehnatkashlar ommasi bilan birga qo'shilib, sotsialistik maorifning asosiy armiyasi bo'lmoqlari kerak edi. Ammo Turkiston o'lkasida o'qituvchilar tayyorlash sohasida alohida qiyinchiliklar tug'ildi. Oktyabr inqilobidan oldin Turkiston o'lkasida atigi bittagina pedagogika o'quv yurti— Toshkentdagi Turkiston o'qituvchilar seminariyasi bor edi, xolos. Bu seminariya 1879 yilda ochilgan bo'lib, 60—70 o'quvchiga mo'ljallangan edi. Bu seminariya rus boshlang'ich maktablari va «russko-tuzemniy» maktablar uchun o'qituvchilar tayyorlar edi. Seminariya 38 yil davomida Turkistondan kattakon bir o'lka uchun atigi 450 ta o'qituvchi tayyorladi, bu o'qituvchilar orasida yerli millatlar vakillari 10—20 kishidan oshar-oshmas edi. 1915 yilda Toshkentda o'qituvchilar instituti ochilib, unga 16 kishi qabul qilindi, qabul qilinganlar ichida yerli millatlardan birorta ham kishi yo'q edi; institut ikki yildan keyin yopilib qoldi.

Xullas, sovet hokimiyatining o'lkada olib borgan siyosati birinchidan, o'z siyosiy hokimiyatini mustahkamlash; ikkinchidan, ijtimoiy tayanchini yanada kengaytirish; uchinchidan esa, mavjud aholi bo'ysunuvchanlik qobiliyatini yanada kuchaytirishni nazarda tutadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rajabov Siddiq “O'zbekistonda sovet maktablari tarixiga doir”. T.: O'zo'quvpeddavnashr. 1957. 135b.
2. Umarov Y “Maktablarimiz taraqqiyot yo'lida”. Qizil O'z. 1960. 40b.
3. Inayatov N “Lenin va O'zbekiston sovet madaniyati rivojlanishi”. T.: 1960. 47b.
4. Karimov R “Oktabr revolyutsiyasi va O'zbekiston madaniy qurilishi”. T.: O'zbekiston. 1967. 40b.

\*\*\*

## ХРИСТИАНЛИКДА “ХОЧ” РАМЗИГА МУНОСАБАТ

Элёр Алимкулов

Ўзбекистон халқаро ислом

академияси таянч докторанти

email: [boshrooo@mail.ru](mailto:boshrooo@mail.ru) +998 91 165-47-74

**Аннотация.** Мазкур мақолада христианлик динидаги хоч рамзи, унинг тарихи ва келиб чиқиши тўғрисидаги ривоятлар, хоч турлари ҳақида маълумотлар асосли равишда ёритилган. Хоч рамзи бўйича олимларнинг қимматли фикрлари қиёсий ўрганилган. Мазкур тимсолнинг тарихдаги ва бугунги кундаги кўриниши рамзий ифодаланган.

**Калит сўзлар.** Христианлик, хоч, рамз, Исо Масиҳ, туз, олтингугурт, симоб, азот, Инжил, хоч турлари.

МУНДАРИҶА/ОГЛАВЛЕНИЕ

№	Ному фамилия	Номи мақола	саҳифа
1.	Маҳмуд Файз	“УСТОДИ ТОШКАНДӢ”	3
2.	Абдуқаюмов А.Р.	ТАРИХНИ ДАВРЛАШТИРИШНИНГ ЦИВИЛИЗАЦИОН ЁНДАШУВИ: НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ ВА РИВОЖЛАНИШ БОСҚИЧЛАРИ	4
3.	Абдувоҳидов Абдулло Шукрулло угли,	РОЛЬ НАУЧНОГО НАСЛЕДИЯ АБУ ЛАЙС САМАРКАНДИ В РАЗВИТИИ ИСЛАМСКОЙ ЦИВИЛИЗАЦИИ	7
4.	Абдуллаева Фируза Шариповна.Старший	ВЕЛИКИЙ МЫСЛИТЕЛЬ XIII ВЕКА НАСЕРИДДИН ТУСИ И ЕГО РОЛЬ В РАЗВИТИЕ НАУКИ	10
5.	Абдурашидова Рушана Фарходовна	ИСТОРИЯ СОВРЕМЕННОГО АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА И СПОСОБ ЕГО ИЗУЧЕНИЯ	13
6.	Абдуллоев Шухратжон Бобоисмоилович	“АВЕСТА”ДА ЁВУЗ МИФИК МАВЖУДОТЛАР ТАЛҚИНИ	16
7.	Алишеров Абдувоҳид Алишерович, Алишеров Абдузоҳид Алишерович,	БУЮК АЛЛОМАЛАРНИНГ ШАРҚ РЕНЕССАНСИДАГИ ҲИССАСИ	22
8.	Ахматов Амонкелди,	БУХОРО АДАБИЙ МУҲИТИ ТАРИХИДА ТОШПЎЛАТ ҲАМИДОВ ФАОЛИЯТИ	24
9.	Атоева Кибриёхон	ВАДАТИ МИЛЛӢ ОМИЛИ АСОСИИ РУШДИ СИЁСӢ, ИҚТИСОДИ-ИҚТИМОЙ ВА ФАРҲАНГИ ТОҶИКИСТОН	27
10.	Азимова К.К.	XIX АСР ОХИРИ – XX АСР БОШЛАРИДА БУХОРОДА БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ ТИЗИМИ ТАРИХИДАН	33
11.	Азизов М.Ҷ. Турсунова Г.А.	АЛОҚАМАНДИИ БАЙНИФАННӢ ДАР ҲАЛЛИ МАСЪАЛАҲОИ ХИМИЯВӢ	35
12.	Азизов М.Ҷ. Турсунова Г.А.	ҲАЛЛИ МАСЪАЛАҲОИ ХИМИЯВӢ – ИНКИШОФДИҲАНДАИ ШУУРИ ХОНАНДАГОН ДАР ҶАРАЁНИ ДАРСИ ХИМИЯ	37
13.	Akramov Doston Faxriddin o'g'li	SOVET HOKIMIYATINING SAVODSIZLIKKA QARSHI KURASHI	39
14.	Алимкулов Элёр	ХРИСТИАНЛИКДА “ХОЧ” РАМЗИГА МУНОСАБАТ	42